

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Tadqiqotchi Abduvaxobov Shohijahon Muxammadjonovich

+998944118906

Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari, kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitiga tez moslasha olishi, bandlikni ta'minlashi, daromad shakllanishi orqali ijtimoiy tengsizlikni yumshatishi hamda o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirishda muhim afzalliklarga ega ekani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, mulk, investitsiya, ishsizlik, imtiyozlar, raqobat.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitiga tez moslasha olishi, bandlikni ta'minlashi, daromad shakllanishi orqali ijtimoiy tengsizlikni yumshatishi va o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirishda muhim afzalliklarga ega. Xususiy va shaxsiy mulkka asoslangan tadbirkorlik faoliyati eng samarali shakllardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligi, xususiy mulk daxlsizligini amalda ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Kichik biznes iqtisodiy faoliyatning har qanday mulk shaklida yuritilishi mumkin bo'lgan shakli sifatida qaraladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, turli mulk shakllariga asoslangan kichik biznes sub'yektlari orasida aynan xususiy mulkka asoslangan korxonalar eng samarali faoliyat yuritmoqda.

Aynan shu sababli, O'zbekiston Respublikasining 2017–2025-yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor rivojlanish yo'nalishlari strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlar ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususiy tadbirkorlik kichik

biznesdan moliyaviy mablag'lar va iqtisodiy resurslarning shakllanish manbalari (tadbirkorning o'z mulki, meros, qarz yoki ijaraga olingan mulk va boshqalar) bilan farqlanadi. Bu faoliyat shaxsiy tashabbusga asoslanadi va xususiy mulk ustuvor o'rin egallaydi. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida kichik biznesni rag'batlantirish bilan birga, uning tarkibidagi xususiy mulkka asoslangan sub'yektlar ulushi uzluksiz oshib bormoqda. Islohotlar aynan shu yo'nalishga qaratilgan.

Natijada, 2023-yilda yil davomida 93 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik sub'yektlari tashkil etildi, bu esa 2022-yilga nisbatan deyarli ikki baravar ko'pdir. Jahon bankining "Doing Business" reytingida O'zbekiston 190 ta davlat orasida 8-o'rinni egalladi va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoriga kirdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar ulushi 2019-yildagi 74,3 % dan 2023-yilda 78,2 % ga oshdi. Sanoatdagi ulushi esa 52,5 % dan 59,4 % ga yetdi. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 18,8 % dan 34,7 % ga oshdi. Shu davrda kichik biznes sub'yektlari soni 1,3 baravar ko'paydi, ularning eksportdagi ulushi esa deyarli 2 baravar oshdi.

Respublika hududlarida kichik biznesning hududiy yalpi mahsuloti, tarmoq mahsuloti, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, chakana savdo aylanmasi va xizmatlar hajmi hamda boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, ayrim muvozanatsizliklar ham mavjud. Xususan, respublikaning deyarli barcha hududlarida 2018-yilga nisbatan 2023-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy yalpi mahsulotdagi ulushi turli darajada oshgan. Biroq ayrim viloyatlarda bu ko'rsatkich biroz pasaygan. Eng yuqori o'sish Andijon viloyatida 11,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, eng katta pasayish Sirdaryo viloyatida 8,7 % ni tashkil etgan.

2023-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy yalpi mahsulotdagi eng yuqori ulushi Jizzax va Namangan viloyatlarida (80,9 %), eng past ulushi esa Navoiy viloyatida (37,6 %) qayd etilgan.

2018–2023-yillar davomida kichik biznesning YAIMdagi ulushi har yili o'rtacha 0,4 % ga oshgan. Sanoat mahsulotidagi ulushi 2018yildagi 19,6 % dan

2022-yilda 45,0 % ga oshgan bo'lsa, 2023-yilda 34,7 % ni tashkil etgan, bu esa 2022-yilga nisbatan 10,3 % ga pasayganini ko'rsatadi. Qurilish sohasida kichik biznes ulushi 2018-yilda 52,3 %, 2020-yilda 67,2 %, 2023-yilda esa 66,6 % ni tashkil etgan. Xizmat ko'rsatish sohasida esa mos ravishda 36,6 %, 60,5 % va 55,2 % ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Tadbirkorlar uchun ichki bozorda sotilgan mahsulotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini qaytarish tartibi ilk bor joriy etildi. Bungacha bu tartib faqat eksport qilinadigan mahsulotlarga nisbatan qo'llanilgan edi. Bu orqali tadbirkorlar ixtiyorida 3,4 trillion so'm mablag' qolgan bo'lib, bu avvalgi yilga nisbatan 2,5 baravar ko'pdir.

Masalan, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:

- o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish;
- makroiqtisodiy beqarorlik, resurs yetishmovchiligi, ishsizlik kabi muammolarga yechim topish;
- sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali YAIM hajmi va sifati bo'yicha o'sishni ta'minlash;
- ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish hamda ularning sifatini oshirish;
- va nihoyat, aholining turmush darajasini yaxshilashga erishish mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat davlat va jamiyat taraqqiyotida, balki inson ehtiyojlarini qondirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu faoliyat xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish kabi sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal o'sishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida ayrim ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish orqali mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitining sifatini yangi bosqichga ko'tarish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan tizimni shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

4. Khalilov, B. (2025). Global economic influences in the usa. journal of applied science and social science, 1(2), 644-647.
5. Toshov, M. H., & Nizomov, S. (2025). o'zbekiston bank-moliya tizimi. modern science and research, 4(3), 194-201.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirish muammolari va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash istiqbollari. 51, 258-266.